



## TO'RT MAZHAB TARKIBIDA YOZILGAN FIQHIY LUG'AT KITOBLAR

Hafizov Najmiddin Abdurashidovich

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti*

Ma'lumki, islom ilmlari alohida soha ko'rinishida rivojlana boshlaganidan keyin o'z navbatida fiqh sohasi ham keng ko'lamda yoyila boshlandi. Sahobalar, tobiinlar va olimlar tomonidan fiqh ilmi musulmon bo'lgan odamlarga o'rgatila boshlandi. Shuningdek. Qur'on va Hadis fiqh ilmining asosini tashkil qilar edi. Ularda esa nafaqat arab bo'lmagan musulmonlar balki, arab bo'lgan musulmonlarning o'zlari ham tushunishlari qiyin bo'lgan so'zlar mavjud edi. Ularni tog'ri tushinish uchun endi lug'at kitoblariga ehtiyoj sezila boshladi. Shu holatni to'g'ri anglab yetgan ba'zi ulamolar fiqhiy termin va atamalarning istilohiy va lug'aviy ma'nolarini chuqur tushintirib beradigan qomus va lug'at kitoblarni yozishga bel bog'ladilar. Quyida shular haqida malumotlar keltirib o'tiladi.

Fiqh sohasi bilan shug'ullanuvchi faqihlarning ham fiqh ilmida katta-katta lug'at kitoblarini o'zlaridan me'ros qilib qoldirganliklari e'tiborga molikdir. Ularning bu kitoblarida qilgan ishlari asosan, tushinilishi qiyin bo'lgan fiqhiy termin va atamalarni yoritib berishdan iborat bo'lgan. Eng e'tiborlisi, islom dinidagi to'rt mazhabdan ham yetishib chiqqan ko'plab ulamolar o'zlarining mazhablari asosida fiqhiy lug'at kitoblarini yozganlar. Ular bu kitoblarni yozishlaridan iroda qilgan narsalari fiqhiy mazhablardagi shar'iy istiloh va atamalardan maqsad qilindan ma'nolarni chuqur yoritib berish va tushuntirish bo'lgan. Shu maqsadni niyat qilib buyuk imom Najmuddin abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy hanafiylik mazhabi asosida "Tilbatut-talaba" istilohiy lug'at kitobini yozib qoldiganlar. Ayni damda mana shu kitobni tahqiq qilish va o'rganish maqsad qilingan. Aynan shu kitob fiqh ilmni o'rganuvchilar uchun shu ilmning eshiklarini ochib berishda juda katta yordam beradi. Sababi shundaki, fiqh ilmidagi mavzularni to'liq tushinish uchun albatta undagi hamma jumlar tushinilishi kerak. Bu ishga esa shu kitob katta ko'mak beradi. Yana huddi shunaqa fiqh ilmining istilohlariga oid kitoblari yozib qoldirgan olimlardan biri, hijriy 616-yilda rihlat qilgan olim al-Muttariziy abu al-Fath Nosir ibn Abdussayyidning "al-Mug'rib fiy tartib al-Mu'rib" kitobidir. Bu kitobda ham hanafiy mazhabi asosida fiqhiy atamalar o'rganib chiqilganligi va asoslab berilganligini ko'rish mumkin. Fiqhiy lug'at yozib qoldirgan ulamolardan yana biri shayx Qosim al-Qovnaviydir. U kishi hijriy 987-yilda vafot etganlar. Olim kitobi "Anyasu al-Fuqohai fiy ta'rifati al-Alfazi va al-Mutadavilati bayna al-Fuqohai"<sup>13</sup> deb nomlanadi. Bu kitob ham fiqhiy kitoblar tartibi asosida yozilgan. Olim ushbu kitobda eng avval so'zlarning lug'aviy ma'nolarini ochib berishga katta e'tibor bergan. So'ngra ushbu so'zlarning istilohiy ma'nolarini tushintirishda Qur'on oyatlari va nabaviy hadislarni dalil qilib keltirgan. Ba'zi hollarda esa dastlab istilohiy ma'nolarini so'ngra lug'aviy ma'nolarini keltirganlarini uchratish mumkin.

Yana bir olim, hanafiy mazhabi faqihi, "Masnafat" nomi bilan mashhur bo'lgan alloma, hijriy 875-yilda vafot etgan Ali ibn Majudiddin ibn al-Shahirudiy al-Bistomiy edi. U kishi

<sup>13</sup> Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatu-t-talaba. – Bayrut: Dor an-Nafois, 2015. – B. 10.



yoʻzib qoldirgan lugʻat kitobi “al-Hudud va al-Ahkam al-Fiqhiyya” deb nomlanadi. Ushbu kitobda olim fiqhiy soʻzlarning sharʻiy tushunchalari va maʼnolarini jamlagan. Fiqhiy lafzlardagi hukmlarning chegaralarini aniqlab bergan. Misol uchun “Vojib” soʻzi nima degani va uning sharʻiy chegarasi qayerligini aniqlab bergan. Ushbu kitobning yana bir muhim tomoni shuki, unda boblar va boʻlimlarning umumiy nomlari ham alohida tushuntirilgan hamda ular aynan bir koʻrinishda tartiblar berilgan. Huddi shunday fiqhiy boblar va boʻlimlar tartiblab yozilganlik holatini “Zaynul Obidiyn Ibrohiym” nomi bilan mashhur boʻlgan, hijriy 970-yilda vafot etgan ibn Nujaym al-Misriyning fiqhiy istilohlarga oid lugʻat kitobida uchratish mumkin.

Yuqorida misol qilib keltirilgan, fiqhiy termin va istilohlarga oid yozilgan kitoblarning barchasi va ularni yozgan ulamolarning hammasi yozgan asarlarini Hanafiy mazhabida yozganliklarini koʻrishimiz mumkin. Quyida esa “Ahli sunna” yoʻnalishidagi qolgan uch mazhab ichida yozilgan kitoblar keltiriladi.

Imom Abu Hanifaning shogirti boʻlmish imom Molik asos solgan Molikiy mazhabidagi ulamolar ham oʻzlaridan katta meros qoldirib ketishgan. Ular ham shariy ilmlarning barcha sohalarida koʻp natijalarga erishganlar. Fiqh borasida ham katta ishlar qilganlar. Buning natijasini oʻzlarining dastlabki fiqhiy istiloh va atamalarga atab yozgan kitoblarida koʻrishimiz mumkin. Jumladan, hijriy 749-yilda vafot etgan olim Izzuddin abu Abdulloh Muhammad ibn Abdussalam al-Umaviy al-Tunisiy fiqhiy atamalarga oid bir kitob yozganlar. U kitobni “Tanbih al-Tolib lifahmi ibn al-Hajib”<sup>14</sup> deb nomlagan. Aslida bu kitob Ibn Hajib nomi bilan mashhur boʻlgan, hijriy 242-yilda olamdan oʻtgan olim Abu Umar Usmaning “Jomi’ al-ummahat fiy fiqhi Malik” deb nomlangan kitobining barcha lafzlariga sharh sifatida yozilgan. U kitobni esa yaʼni, “Tanbih al-Tolib lifahmi ibn al-Hajib” kitobini Ibn Abdussalom degan olim chuqur oʻrganib chiqib, ichidagi iboralarni arab alifbosi tartibi kaʼbi tartiblab chiqib, qayta yozgan. Molikiy mazhabida yozilgan yana bir kitobni Ibn Abdulloh ibn Muhammad ibn Urfa degan olim yoʻzib qoldirgan. U kishi hijriy 803-yilda olamdan oʻtgan. Asarlarining nomi “Al-Hudud fiy al-Taarif al-fiqhiyya” den nomlangan. Bu kitob ham oʻz navbatida koʻp nashrlarda bosilgan va keng tarqalgan.

Imom Abu Hanifaning yana bir shogirti sifatida tanilgan mujtahid olim, “Shofiiy” mazhabi asoschisi boʻlgan imom Shofiiy mazhablarida ham bu borada katta-katta ishlar qilingan. Jumladan, al-Imom Abu Mansur Muhammad ibn Ahmad al-Azhariy al-Haraviy. Bu olim fiqh ilmini tushinishga katta yorgam beruvchi shunday bir foydali kitob yoʻzib qoldirganki, aynan shu kitob barcha faqihlar uchun fiqh ilmini chuqur tushinishlari uchun uning sir-asrorlarini keng ochib bergan, fiqhiy soʻzlar va atamalarni aniq anglash uchun ularning barcha maʼnolarini xos holatta yoritib beruvchi faqihlar uchun fiqh ilmi tafsir kitobi sifatida koʻrilgan. Faqihlar uchun asosiy dastur kitob boʻlib xizmat qilgan. Shu kitob yordamida faqihlar uchun hech qanday notanish va tushinarsiz soʻzga duch kelish muammosi boʻlmagan. Agar shunday holat boʻladigan boʻlsa buning javobi albatta ushbu kitobdan topilgan. Bu olim hijriy 370-yilda vafot etgan. Oʻzidan keyingi avlod uchun qoldirgan bu nodir kitobining nomini “Al-Zohir fiy gʻoriyb alfoz al-shofiiy” deb nomlagan.

<sup>14</sup> Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatu-t-talaba. – Bayrut: Dor an-Nafois, 2015. – B.11.



Bu kitobni Ihsan Abbos ismli olim Bayrutdagi “Dor al-Saqofa” nashriyotida tahqiq qilib chiqargan. Yana shunday bir nodir kitob yozib qoldirib, Shofiiy mazhabi rivojiga katta hissa qo‘shgan olim, katta imomlardan bo‘lgan Abu Zakariyo Muhyuddin ibn Sharif an-Navaviy edi. U kishi hijriy 272-yilda vafot etgan. U kishining mashxur kitobi “Tahzib al-asmai va al-lug‘ati” deb nomlanadi. U kitobning ichida imom Shofiiy mazhabiga taalluqli bo‘lgan, aynan fiqhiy-istilohiy so‘zlarning deyarli barchasini jamlagan. Undan tashqari olim yana kitob yozib qoldirgan. U kitobini “Tahrir al-faz al-tanbihi” yoki “Lug‘at al-fiqh” deb nomlagan. Bu kitobni esa Shayx Abdulg‘oniy Addaqri degan olimning tahqiqi ostida Damashqdagi “Dor al-Qolam” nomli nashriyotda bosmadan chiqarilgan.

Shofiiy mazhabi tarixida o‘zining ilmi va izlanishlari bilan chuqur iz qoldirgan olimlardan yana biri Imom Abulabbos Ahmad ibn Muhammad ibn Ali al-Fayumiy al-Muqriy edi. U kishi ham fiqh ilmida katta foyda keltirgan fiqhiy lug‘at yozib qoldirgan. Olim foni dunyoni hijriy 770-yilda tark etgan. Olimni manfaatli kitobining nomi “Al-Misbah al-Munir fiy g‘oriy al-sharh al-kabir lirrofiiy” deb nomlanadi. Olimning bu kitobi ahli ilmlar ichida juda mashxurdir.

Yuqorida ahli sunnah va al-jamoa tarkibidagi uch mazhab asosida yozilgan dastlabki lug‘at kitoblari keltirib o‘tildi. To‘rtinchi mazhab bo‘lgan, Imom Hanbal asos solgan Hanbaliy mazhabida ham istilohiy lug‘at kitoblari yozilgan. Jumladan, hijriy 709-yilda vafot etgan alloma Muhammad ibn Abulfath al-Baliy al-Hanbaliy imom Muvaffaqquddin ibn Quddoma al-Maqdusiyning “Al-Mustalahot al-fiqhiyya va al-alfoz al-g‘orbiyya al-varida fiy kitab al-muqni” kitobiga sharh o‘laroq Hanbaliy fiqhida juda nodir bo‘lgan lug‘at kitobini yozib qoldirgan. Bu manba ham o‘z navbatida katta adadlarda nashrlardan chiqib kelmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, islom ilmlarining dastklabki davrlaridayoq fiqh ilmi sohasida katta-katta lug‘at kitoblari yozilgan va ular ilmu toliblar e‘tiboriga havola qilingan.